

QONUN VA QARORLARDA YUZAGA KELAYOTGAN KAMCHILIKLAR TO‘G‘RISIDA

Abduvaliyeva Aziza Botir qizi

Alisher Navoy nomidagi ToshDO‘TAU 2-bosqich talabasi

E-mail: ansoraabduvaliyeva@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qonun tili uslubi va yozilish shakliga to‘xtab o‘tilgan. Tarixan qonunlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari borasida ham so‘z yuritilgan. Bundan tashqari, bir nechta qaror va farmonlar misolida qonun tuzishda uchraydigan xato va kamchiliklar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: qonun, qonun tili, qarorlar, huquqshunoslar, qonunchilik uslubi, sotsial muhit, huquqiy savodxonlik.

Ta’kidlash joizki, qonunlar dastlab og‘zaki shaklda bo‘lgan va keng xalq ommasiga notiqlar tomonidan yetkazilgan. Vaqtlar o‘tishi bilan qonunlar ham boshqa manbalar singari yozma shaklga o‘ta boshlagan. Sekin-astalik bilan qonunlarning barchaga birdek tushunarli bo‘lishini ta’minlash maqsadida qonunning o‘ziga xos shakl va usullari ishlab chiqila boshlangan va bu paytda, asosan, hukmdorlar tomonidan qonun ishlab chiqilishi keng tarqalgan. “Bugungi kunda fanga tariximizning turli davrlarida o‘rxun-enasoy, sug‘d, eski uyg‘ur, arab va boshqa yozuvlarda bitilgan juda ko‘plab hujjatlar, umuman, yozma manbalar ma’lum.

Sharqda X – XIX asrlarda yorliq, farmon, noma, bitimlar, arznoma, qarznomalar, vasiqa, tilxat yoki mazmunan yangi yaqin hujjatlar nisbatan keng tarqalgan. Yorliqlar mazmunan xilma-xil bo‘lgan: xabar, tavsif, farmoyish, bildirish, tasdiqlash va h.k. Bu o‘rinda To‘xtamishxonning 1393-yilda polyak qiroli Yag‘aylaga yo‘llagan yorlig‘i, Temur Qutlug‘ning 1397-yildagi yorlig‘i, Zahiriddin Boburning otasi Umarshayx Mirzoning marg‘ilonlik Mir Said Ahmad ismli shaxsga 1469-yilda bergan yorlig‘i, Toshkent hokimi Yunusxo‘janing 1797-yil 2-iyunda Peterburgga – Rossiya podshosiga o‘z elchilari orqali yuborgan yorlig‘i va boshqalarni eslab o‘tish mumkin. Mazkur davr yorliqlarida o‘ziga xos lisoniy qolip shakllangan, yorliqlar matn jihatidan an’anaviy tarkibiy qismlarga ega bo‘lgan. Masalan, eslab o‘tilgan yorliqlarning birinchisi – “To‘xtamish so‘zim Yag‘aylag‘a” deb, ikkinchisi “Temur qutlug‘ so‘zim deb”, uchinchisi esa – “Sulton Umarshayx Bahodur so‘zim” deb boshlangan” [Aminov M, Madvaliyev A, Mahkamov N, Mahmudov N, Odilov Y, 2020: 7]. Bundan tashqari, “429-438-yillar imperator Feodosiy II buyrug‘i bilan “Feodosiy kodeksi” nomida

imperator qonunlari tayyorlandi. 529-yilda “Yustinian kodeksi”, 533-yilda “Digetslar” – rim huquqshunoslarining asarlaridan olingan ma’lumotlar to’plami 50 jildda e’lon qilindi” [“Jahon tarixi” fanidan ma’ruzalar matni, 2008: 320]. Yana shuni aytib o’tish joizki, qonunlardan o’z davrida atayin buzib siyosiy maqsadlarda ham foydalanilgan, “Umuman olganda, tarixan qonun tuzish uslubiyaatiga huquqshunoslar tomonidan nozik bir san’at sifatida qaralgan. Uning nozik jihatlari, o’ziga xos xususiyatlari maxsus fan darajasida o’qitilgan va shu soha bilan shug’ullanuvchi maxsus mutaxassislar tayyorlangan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, ma’lum bir davrlarda huquning mazmunini, mohiyatini yashirib ko’proq foyda olish uchun qonunlarni xalq tushunmaydigan tilda, mavhum holatda, nihoyatda uzundan uzun tuzish holatlari ham bo’lgan” [Najimov M, Saydullayev Sh, 2012: 18]. Qonun har qanday vaziyatda, har qanday sharoitda katta amaliy ahamiyatga ega bo’lishi mumkin ekan.

Qonun tili haqida gapirar ekanmiz, albattaki, ko’z oldimizga, birinchi navbatda, o’zining muayyan maqsadiga erishib ulgurmay, ijtimoiy hayotda ma’lum bir funksiyani bajara olmay qolayotgan ayrim qonunlar kela boshlaydi. Vaholanki, qonun bu – jamiyat ehtiyojlari uchun xizmat qiluvchi, o’zida xalq manfaatlarini aks ettiruvchi, fuqaro bilan davlat o’rtasidagi rasmiy yuridik til. Qonun qanchalik adabiy til me’yorlariga asoslanib tuzilgan bo’lsa, qanchalik tushunarli va izchil bo’lsa, jamiyatga shu darajada tez singishib ketadi va juda tez muddatda o’z ijrosini topadi. Zero, bugungi kun qonun tilida yuzaga kelayotgan xato va kamchiliklar ham ularning mohiyatiga ta’sir etmasdan qolmayapti. Bu hol jamiyat vakillarida huquqiy savodxonlikning pasayishiga, siyosiy jabhada bo’layotgan o’zgarishlarga loqayd qarab turishga, fuqarolarning o’z haq-huquqini bilmasliklari, qonunlarni yaxshi anglab yetmaganliklari oqibatida bir qancha ijtimoiy muammolarning ko’payishiga olib kelyapti. Qonunlarning bunday ahvolga kelishiga sabab bo’luvchi asosiy omillardan biri bu ularning lingvistik jihatdan to’laqonli talablarga javob bera olmasligidir. Ma’lumki, qonun tili rasmiy uslub talablariga javob berishi, ma’lum bir qolipga solinishi, aniqlik, lo’ndalik, ixchamlik, izchillik va shunga o’xshash bir qator me’yorlarga ega bo’lishi lozim. Sababi, ma’lum bir qoidalarga bo’ysungan holda tuzilmagan, keng omma vakillari uchun tushunarsiz va g’aliz birikmalardan tashkil topgan nutq shakli qanchalik mukammal mazmun-mohiyatni o’zida aks ettirgan bo’lishiga qaramasdan, o’zining vazifasini o’rinlicha bajara olmaydi. Buni bir qancha qaror va qonunlar misolida ko’rishimiz mumkin: 1.

Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha choralar ko’rilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida (“Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya

qilininishini ta'minlash bo'yicha choralar ko'rilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" №833-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni). Ushbu jumla qonun sarlavhasi hisoblanib, unda qonun tili talablari hisoblanuvchi qisqalik e'tiborga olinmagan. Sababi qonun faqatgina huquqshunos yoki shu sohaga aloqador bo'lgan shaxslar uchun qabul qilinmasdan, davlatning barcha fuqarolari uchun birdek tegishli bo'ladi. "Ayniqsa, yuridik tilning tarkibiy qismi bo'lgan qonun tili gap qurilishi jihatidan tushunilishi yengil bo'lishi va oddiy fuqaro ham tez tushunib oladigan talablarga javob beradigan bo'lishi shart" [Usmonov S, 2007: 18].

2. "Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida" qonun matnida ham ayrim imloviy, uslubiy kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Masalan, shartnoma matnining 4-bandida so'z takroridan noo'rin foydalanilganligi oqibatida uslubiy xatolikka yo'l qo'yilgan:

"4. Vazirlar Mahkamasi hamda tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari ushbu xalqaro shartnoma kuchga kirganidan keyin belgilangan tartibda uning qoidalari bajarilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni ta'minlasin ["Xalqaro shartnomani tasdiqlash to'g'risida" №131-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori].

3. "2. Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil hamda O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan" ["Benifitsiari budjet va korporativ buyurtmachilar bo'lgan to'lovlarni amalga oshirishda to'lanadigan vositachilik haqqi (yig'im) larning chegaraviy miqdorini belgilash haqida" №3429-sonli O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki boshqaruvining Qarori]. Ushbu qaror bandida ham uslubiy xatolik uchragan. Ya'ni ushbu qaror borasida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil hamda O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan, deb jumla tuzilgan maqsadga muvofiq bo'lar edi.

4. "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilishni yanada kuchaytirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida" ["O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilishni yanada kuchaytirishga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida" №832-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni]. Ushbu qonun sarlavhasida ham qonun tili talablari hisoblanuvchi g'alizlikdan holi, aniqlik va qisqalikka e'tibor qaratilmagan,

natijada qonun sarlavhasining o‘ziyoq tushunarsizlikka sabab bo‘lgan.

5. “Banklar va ularning filiallari binolarida kassa tarmoqlarini tuzilishiga qo‘yiladigan texnik talablarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish haqida” [“Banklar va ularning filiallari binolarida kassa tarmoqlarini tuzilishiga qo‘yiladigan texnik talablarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish haqida” №2816-2-sonli O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Boshqaruvining Qarori]. Ushbu qaror sarlavhasida ham uslubiy xatolarga qo‘yilgan. Masalan, banklar va bank filiallarining binolarida kassa tarmoqlarining tuzilishiga qo‘yiladigan texnik talablarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida, deb jumla tuzilishi kerak. Ya’ni ushbu qismda kelishik va ko‘plik qo‘shimchalarini noto‘g‘ri qo‘llash bilan bog‘liq xatolik kuzatilgan.

6. “Statistika hisobotini elektron shaklda taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida” [“Statistika hisobotini elektron shaklda taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida” №3312-3-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi Direktorining Buyrug‘i]. Ushbu hujjat matnida ham qator kamchilik va uslubiy xatoliklar mavjud. Misol tariqasida buyruqning 2-bandida keltirilgan quyidagi jumlaning keltirish mumkin: “qayta ishlash davri – taqdim etilgan statistika hisobotini tahlil qilish va umumlashtirish uchun Statistika agentligi tomonidan belgilangan vaqt oralig‘i. Qayta ishlash davri tegishli yig‘ma statistika ma’lumotlarini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan bir yillik statistika dasturida belgilangan tarqatish muddatidan oshmasligi kerak” . Jumla “Qayta ishlash davrida tegishli yig‘ma statistika ma’lumotlarini tarqatish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan bir yillik statistika dasturida belgilangan tarqatish muddatidan oshmasligi kerak” deb tuzilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashtirilgan va zamonaviy jamiyatda yashar ekanmiz, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, chiqarilayotgan qaror va farmonlar ham aynan zamon talabiga javob bera olishi zarur. Sababi, o‘shib kelayotgan yosh avlodning huquqiy savodxonlik darajasi aynan bizning bugungi kundagi qabul qilinayotgan qaror va farmonlarimizga bog‘liq. Shu bilan birgalikda, qonun va qarorlarning jamiyat ongiga singishib, ijtimoiy hayotda to‘laqonli qabul qilinishi, albattaki, fuqarolarning qonun mazmun-mohiyatini anglab yetganligiga va huquqiy savodxonligiga borib taqaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Aminov, M., Madvaliyev, A., Mahkamov, N., Mahmudov, N., Odilov, Y. (2020). Davlat tilida ish yuritish. Toshkent. 7b.
2. “Jahon tarixi” fanidan ma’ruzalar matni. (2008). Namangan. 320 b.
3. Najimov, M., Saydullayev, Sh. (2012). Qonunchilik texnikasi. Toshkent. 18 b.
4. Usmonov, S. (2007). Yuristning nutq madaniyati. Toshkent. 18 b.